

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI PhD.03/30.12.2019. TAR.78.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

ANNAYEVA ZARIFA MUSURMONQULOVNA

**O‘ZBEKISTON JANUBIY HUDUDLARIDA EKOLOGIK HOLAT VA UNI
BARQARORLASHTIRISH SHARTLARI (XX ASR OXIRI VA XXI ASR
BOSHLARI)**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
AVTOREFERATI**

Termiz – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)

Annayeva Zarifa Musurmanqulovna

О‘zbekiston janubiy hududlarida ekologik holat va uni barqarorlashtirish shartlari
(XX asr oxiri va XXI asr boshlari).....5

Аннаева Зарифа Мусурманкуловна

Экологическое положение в южных регионах Узбекистана и ее условие
стабилизации (конец XX века и начала XXI века)23

Annaeva Zarifa Musurmankulovna

Environmental conditions in the southern regions of Uzbekistan and conditions for
their stabilization (end of the XX century and beginning of the XXI century)45

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....49

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI PhD.03/30.12.2019. TAR.78.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

ANNAYEVA ZARIFA MUSURMONQULOVNA

**O‘ZBEKISTON JANUBIY HUDUDLARIDA EKOLOGIK HOLAT VA UNI
BARQARORLASHTIRISH SHARTLARI (XX ASR OXIRI VA XXI ASR
BOSHLARI)**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi

AVTOREFERATI

Termiz – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasida B.2020.1.PhD/Tar 598 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertasiya Termiz davlat universitetida bajarilgan.

Dissertasiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.terdu.uz) hamda «ZiyoNET» axborot-ta’lim portal (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Mavrulov Abdulhalil Abdulhayevich

tarix fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Qabulov Eshbolta Atamuratovich

tarix fanlari doktori, professor

Raximova Gulchehra Sobirjonovna

tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

Termiz davlat pedagogika instituti

Dissertasiya himoyasi Termiz davlat universiteti huzuridagi tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini beruvchi PhD.03/30.12.2019. Tar.78.02 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil «_____» kuni soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy. TerDU, 2-bino 4-qavat, Majlislar zali). Tel.:(99876) 223-13-11; e-mail: termizdu@umail.uz

Dissertasiya bilan Termiz davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan) (Manzil: Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy).Tel/faks: 03762217690

Dissertasiya avtoreferati 2023 yil «_____» _____ kuni tarqatildi.
(2023 yil «_____» _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi bilan).

S.N.Tursunov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, t.f.d, professor.

H. E. Xolmo‘minov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, t.f.n. dotsent

E.A.Qabulov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
huzuridagi Ilmiy seminar rais o‘rinbosari, t.f.d. professor.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi annotasiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahon mamlakatlarining izchil globallashuvi hamda iqtisodiy integratsiya tendensiyalarining kuchayib borishi bilan birga qator global muammolar ham insoniyat hayotiga jiddiy xavf solmoqda. Ana shunday global muammolardan biri ekologik muammolar sanaladi. Hozirgi zamon ekologik muammolari kishilik jamiyatida barqaror rivojlanishiga jiddiy xavf solmoqda. Tabiiy tizimlarning jiddiy tarzda inqirozga yuz tutishi biosferaning buzilishiga, jamiyatning hayotiy faoliyati uchun zarur bo'lgan atrof-muhit musoffoligiga kuchli ziyon yetkazmoqda Rim klubining «XXI asrga yo'l» tezislarida ta'kidlaganidek: Yer yuzidagi barcha qarama-qarshiliklar, tuproq eroziyasi o'rmonlarning yo'q bo'lib ketishi, atmosferaning ifloslanishi, ozon qatlamlarining buzilishiga olib keldi¹.

Bugungi kunda dunyoning ko'plab xalqaro tashkilotlari jumladan: Birlashgan millatlar tashkilotining atrof-muhitni muhofaza qilish dasturi (YUNEP), Taraqqiyot dasturi, Sanoat rivojlanishi bo'yicha komissiyasi (YUNIDO), Tinch okeani va Osiyo mintaqasi uchun iqtisodiy va ijtimoiy komissiya (ESKATO) atrof-muhit muhofazasi yuzasidan keng faoliyat olib bormoqda. Bundan tashqari AQSh, Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Niderlandiya, Janubiy Koreya, Yaponiya kabi davlatlar ham global ekologik muammolarni hal qilish yuzasidan o'z dasturlarini qabul qilgan.

Yangi O'zbekiston sharoitida inson qadrini ulug'lash maqsadida amalga oshirilayotgan islohotlar tarkibiy qismida ham ekologik vaziyatni barqarorlashtirish bilan bog'liq qator amaliy tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, shahar va tumanlarda ekologik ahvolni yaxshilash, «Yashil makon» umummilliy loyihasini amalga oshirish bilan bog'liq vazifalarning kun tartibiga qo'yilishi² ekologik xavfsizlik sohasida davlat boshqaruvining tubdan yaxshilanishi, atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik sharoitni yaxshilash, aholi salomatligi va turmush tarzining sifat darajasini yaxshilash maqsadida amalga oshirilayotgan barcha xayrli tadbirlar, ekologik muammolar yechimida yuz berayotgan sezilarli o'zgarishlar tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 21 apreldagi PF-5024-son «Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi, 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmonlari, 2018 yil 30 oktyabrdagi PQ-3956-son «Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruv tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi, 2021 yil 30 dekabrda PQ-76-son «Atrof-muhitni muhofaza qilish hamda ekologik nazorat sohasidagi davlat organlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari hamda sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda ko'rsatilgan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

¹ O'zbekiston Respublikasida atrof tabiiy muhit muhofazasi va tabiiy resurslardan foydalanishning holati to'g'risida milliy ma'ruza. – Toshkent, 2006. – B 6.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni 2022-2026 yillarga mo'ljallanganligi Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. www.gazeta.uz

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mavzuni yoritishga xizmat qilgan adabiyotlarni tarixshunoslik nuqtai-nazaridan uch guruhga bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

Birinchi guruhga sovet davrida nashr etilgan ilmiy ishlarni, ikkinchi guruhga mustaqillik yillarida bajarilgan tadqiqotlarni, uchinchi guruhga esa xorijda e‘lon qilingan adabiyotlarni kiritish mumkin.

Birinchi guruhga kiritilgan ilmiy va ilmiy ommabop adabiyotlar Sovet mafkurasi hukmronligi sharoitida yaratilgan bo‘lib, bu davrda sanoat va qishloq xo‘jaligida intensiv ishlab chiqarishning joriy etilishi, mintaqada paxtachilikni rivojlantirish uning istiqbollari bilan bog‘liq jarayonlar ancha bo‘rtirib bayon qilingan mavjud muammolar ayniqsa, ekologik muammolar yuzasidan deyarli fikr bildirilmagan. Ushbu tadqiqotlar doirasida I.Alimov, M.Qodirov, A.Tojiboev, A.Mavlonov va A.Oxunov³larning tadqiqotlarini kiritish mumkin.

Ushbu tadqiqotlarda O‘zbekistonda paxtachilikni rivojlantirishni, ilmiy-texnika yutuqlaridan foydalanish natijalari, shu jumladan paxta maydonlariga kimyoviy usul bilan ishlov berishning afzalliklari, respublika qishloqlarining ijtimoiy-iqtisodiy «ravnaqi» bilan bog‘liq jarayonlar tahlil etilgan holatda mintaqadagi ekologik holatga e‘tibor qaratilmagan.

Ammo, qayta qurish siyosati tufayli yuzaga kelgan oshkoralik tamoyillari hamda xalqimizning milliy haq-huquqlarini anglash va shu yo‘lda kurash olib borish davrining qizg‘in pallasi sanalgan 1985-90 yillarda barcha jabhalarda ko‘tarilgan muammolar qatorida ekologik muammolarga ham nisbatan e‘tibor qaratila boshladi. Xususan, ushbu davrda I.Hoshimova⁴, B.Ziyomammedov⁵, T.Alimov⁶, Z.Abdullayev⁷ va K.Murayev⁸larning tadqiqotlarida O‘zbekistondagi ijtimoiy-iqtisodiy masalalarga tanqidiy yondoshuv, mavjud muammolarning ildizini topish, respublikadagi ekologik vaziyat bilan bog‘liq muammolar keng e‘tibor qaratilgan.

Biroq, ushbu tadqiqotlar ham sovet mafkurasi hukmronligi sharoitida amalga oshirilgan bo‘lib, mazkur tadqiqotlarda ham respublikada ekologik tang holatni

³ Алимов И. Сельской хозяйство Узбекистана в девятой пятилетки. – Ташкент: «Фан», 1976; Ўша муаллиф. Химизация сельско хозяйственного производства в центре внимания партийной организации. – Ташкент, 1978; Кадыров М. Социально-экономическое развитие узбекского села в условиях развитого социализма. – Ташкент: «Ўқитувчи», 1984; Таджибаев А. Кольхозно-крестьянство Узбекистана в борьбе за внедрение достигнутой научно-технического прогресса в хлопководстве (1950-1970 гг). – Ташкент: Узбекистан, 1987; Мавлонов А. Осуществление аграрной политики в Узбекистане (1965-80 гг). Автореф. дисс.канд.истор.наук. – Ташкент, 1987; Ахунув А. Проблемы преодоления тарможения в развитии научно-технического прогресса сельского хозяйства Узбекистана. – Ташкент, Узбекистан, 1990.

⁴ Хошимова И. Диалектика соотношения глобального и зонального в экологии. – Ташкент: Фан, 1985.

⁵ Зиямухаммедов Б. Экология: история, теория и современность. – Ташкент: Меҳнат, 1990.

⁶ Алимов Т. Экологическая ситуация в Узбекистане и пути ее улучшения. – Ташкент: Билим, 1990.

⁷ Абдуллаев З. Экологические отношение и экологическое сознание. – Ташкент: Фан, 1990.

⁸ Мураев К. Некоторые проблемы партийного руководства развития хлопководства в Узбекистане (вторая половина 60-х-80 годы). Автореф. дисс. канд. Истор. Наук. – Москва, 1990.

keltirib chiqargan ijtimoiy siyosiy omillar hamda sovet davlatining noto'g'ri ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining oqibati bilan bog'liq jarayonlar urg'u berilmagan.

Ikkinchi guruh adabiyotlar mustaqillik yillarida nashr etilgan tadqiqotlarni o'z ichiga oladi. Mustaqillik yillarida o'rganilayotgan mavzu bilan bog'liq tarzda bajarilgan tadqiqotlarda sovet hukumatining xalq xo'jaligini boshqarish borasidagi ma'muriy-buyruqbozlik siyosati va uning oqibatlari tahlil qilingan shu jumladan mintaqada yuzaga kelgan ekologik tang holatlarga ham keng ta'rif berilgan.

Ushbu guruh adabiyotlarga S.Mehmonov, O.Yuldoshev, A.Razzoqov, N.Oblomurodov, M.Qamariddinova, R.Umrzoqova, B.Siddiqov, T.Pardayev, D.Bobojonova, X.Yunusova, A.Abdullayev, S.Davlatov, G.Rahimova va D.Yakubovalarning tadqiqotlarini kiritish mumkin⁹. Ushbu tadqiqotlarda respublikada vujudga kelgan ekologik muammolarning sabablari va ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari tarixnavislik nuqtai-nazaridan tahlil etib berilgan.

Mustaqillik yillarida ekolog olimlar tomonidan O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish xususan atrof-muhit muhofazasi, ekologiya va aholi salomatligini saqlash bilan bog'liq muammolar yuzasidan qator ilmiy va ilmiy-ommabop adabiyotlar ham nashr etildi, shunday tadqiqotlardan P.Borotov, Sh.Otaboyev, Yu.Shodimetov, R.Qurboniyozov, J.Xolmo'minov, A.Azizov, T.Ergashev, A.Ergashev, T.Tilavov, Sh.Murodov¹⁰larning kitoblarini kiritish mumkin. Ushbu kitoblarda atrof-muhit muhofazasi bilan bog'liq ijtimoiy, huquqiy va umuminsoniy majburiyatlar tahlil etilgan. Shuningdek, ekologik muvozanatning buzilishi, ekologik xavf-xatarlar hamda uni bartaraf etish bilan bog'liq masalalar yuzasidan ham qator tavsiyalar bayon qilingan. Bu davrda O'zbekistonning janubiy viloyatlaridagi ekologik vaziyat, ekologik muammolar va ularning oqibatlari yuzasidan ham qator tadqiqotlar amalga oshirildi. Ana shunday tadqiqotlar qatoriga N.Xolmurodov, Sh.Xurramov,

⁹ Mehmonov S. Qishloq aholisining turmush sharoiti: muammo va yechimlar. – Toshkent: Mehnat, 1991; Razzoqov A. O'zbekiston paxtachiligi tarixi. – Toshkent: O'zbekiston, 1994; Oblomurodov N. Развитие аграрного производства Узбекистана в 1917-1990 гг. Опыт, уроки и проблемы автореф. дисс... докт.истор.наук. – Ташкент, 1994; Камариддинова М. Опыт и проблемы перевода сельского хозяйства Узбекистана на индустриальную основу во второй половине 70-х-первой половине 80-х годов. Автореф. дисс... канд. Ист. Наук. – Ташкент, 1994; Умрзокова Р. Развитие химической промышленности в Узбекистане (История, опыт, проблемы) автореф. дисс... канд. Ист.наук. – Ташкент, 1994; Сиддиков Б. Социально-экономические аспекты развития совхозного производства Узбекистана 1965-1985 гг Авторефер. Дисс. ист. Наук. – Ташкент, 1994. Пардаев Т. Химизация сельского хозяйства в Узбекистане в 60-е годы: состояние и проблемы. Автореф. дисс. канд. Ист.наук. – Ташкент, 1998; Bobojonova D. O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar. – Tashkent: Sharq, 1999; Юлдашев О. Состояние и проблемы оздоровления, сохранения природной среды Узбекистана в 80-е годы; Автореф. Дисс... канд.ист наук. – Ташкент, 1993; Yunusova X. O'zbekistonda sovet davlatining milliy siyosati va uning oqibatlari. – Toshkent: «Zarqalam», 2005; Абдуллаев А. Хлопковая монокультура в Узбекистане и её последствия. Автореф.докт, ист.наук. – Ташкент, 2010; Davletov S. XX asrning ikkinchi yarmi XXI asr boshlarida O'zbekistonda ekologik vaziyat va uning ijtimoiy muammolari. Tarix fanlari dok. diss. Urganch. 2012;Raximova G. XX asr 50-90 yillarida Farg'ona vodiysi sanoat rivojining ekologik holatga ta'siri. Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2018; Yakubova D. O'zbekistonda paxta yakkahokimligining o'rnatilishi va uning natijalari (1930-1990 yillarda Surxon vohasi misolida). Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Termiz, 2021.

¹⁰ Ergashev T. Umumiy ekologiya. – Toshkent, 2003; Ergashev A., Ergashev T. Atrof-muhitni muhofaza qilish. – Toshkent, 2005; Tilavov T. Ekologiyaning dolzarb muammolari. – Qarshi: Nasaf, 2003; Муродов Ш. Основы экологии. I книга. –Ташкент: Чинор, 2006.

X.Zokirov¹¹larning asarlari va tadqiqotlari yuqorida keltirilgan muammolarga bagishlangan.

Ushbu kitoblarda Surxondaryo viloyatining ekologik muammolari, xususan yerning sho'rlanishi suv havzalarining minerallashuv darajasining ortib borishi, atmosfera havosining ifloslanishi, tabiatdagi bioxilmaxillikka yetkazilgan zarar, aholi salomatligiga ekologik muammolarning ta'siri bilan bog'liq jihatlar tadqiq etilgan.

Biroq O'zbekistonning janubiy hududlaridagi ekologik muammolar, ularning kelib chiqish sababalari hamda ijtimoiy oqibatlari tarixnavislik kontekstida alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganilgan emas.

Uchinchi guruh adabiyotlarga asosan tadqiq etilayotgan muammo bilan bog'liq xorijlik tadqiqotchilarning asarlarini keltirib o'tish mumkin. Bularga J.Ridvey, A.Born, M.Tyurman, Herrera G.S, Misklin P. Ph, Roszak T, Spoor M. va boshqalarning o'z tadqiqotlarida o'rganilayotgan mavzu yuzasidan mavzu bilan bog'liq ma'lumotlarni olish mumkin¹².

Xullas, o'rganilayotgan mavzu yuzasidan amalga oshirilgan tadqiqotlar tarixshunosligi shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonning janubiy hududlaridagi ekologik muammolar, uning kelib chiqish sabablari hamda ijtimoiy oqibatlari alohida tadqiqot obyekti sifatida mustaqil tadqiqot tarzida o'rganilgan emas.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Termiz davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining ATD-1 «O'zbekiston davlatchiligi tarixi:munosabatlar va qarashlar» (2015-2021) mavzusidagi tadqiqot doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: XX asr oxiri va XXI asr boshlarida O'zbekistondagi ekologik holatning ahvoli va uni barqarorlashtirish shartlarini janubiy hududlar misolida tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

- Sovet hokimiyatining ekologik muvozanat masalasidagi siyosatini o'rganish;
- Sovet davridagi agrar siyosatning mohiyati va og'ir ekologik ahvolni tahlil qilish;

¹¹ Xolmurodov N. Surxondaryo tabiati va uning muhofazasi. – Toshkent: Chinor, 1998; Xurramov Sh., O'tashev Sh. Talofat. – Toshkent, 2007; Zokirov X. Tabiatni muhofaza qilishning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ekologik jihatlari. – Termiz, 2009, O'sha muallif Ekologiya va tabiatni muhofaza qilishning umumiy masalalari. – Termiz, 2009; O'sha muallif. Suv resurslarini muhofazaxa qilish va ulardan oqilona foydalanish. – Termiz, 2010.

¹² Ridgeway J. Environmental Devastation in the Soviet Union -Canada . 1990; Born A. Uzbekistan: politics and foreign policy. Royal Institute of International Affairs . -London , 1998; Thurman M. Agriculture in Uzbekistan : Private, Dehqan and Shirkat Farms in the Pilot Districts of the Rural Enterprise Support Project . December 2001; Herrera G.C. The Environmental Crisis and the Tasks of History in Latin America // Environment and History , February, 1997, Volume 3. number 1; Micklin P. Ph . The Water Management Crisis in Soviet Central Asia , June . 1989; Roszak T. The creative disintegration of industrail society . N.Y. , 1979. XXX; Spoor M. Cotton in Central Asia // The Cotton Sector in Central Asia . Economic Policy and Development Challenges . Proceeding of a held at SOAS. University of London. 3-4 November, 2005, London, 2007; Kandiyoti D. Post - Soviet Institutional Design, NGOs and Rural Livelihoods in Uzbekistan. -Geneva: UNRISO, 2004; Pechei A. Human qualities. Moscow, Progress Publishers, 1980; Eric Freedman. Enviromental Issues in the ferghana Villey of Centria Asia. Applied Enviromental Edication & Communication.MichiganUSA.2014.Ne 3; Programme of Action. Agenda for the XXI Century and other documents of the conference in Rio de Janeiro in the popular presentation [Программа действий. Повестка дня XXI век и другие документы конференции в Рио де Жанейро в популярном изложении]. Geneva, Publishing Center «For Our Common Future», 1993; Wheeler G. The peoples of Soviet Central Asia. - London, 1966; Rywkin M. Russia in Central Asia . - New - York - London, 1963.

- Janubiy hududlarda sug'orish tizimi va tuproq unumdorligi bilan bog'liq muammolarini o'rganish;

- Atrof-muhit musaffoligi va aholi salomatligi bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqargan sabablarni ochib berish;

- O'zbekistonda ekologik holatni barqarorlashtirish bo'yicha davlat dasturlarining tadbiriq qilinishi va uning natijalarini ochib berish;

- Janubiy viloyatlarda ekologik holatni barqarorlashtirishning asosiy yo'nalishlari bilan bog'liq harakatlar mohiyatini tahlil qilish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida XX asr oxiri va XXI asr boshlarida O'zbekistonning ekologik holati va uni barqarorlashtirish bilan bog'liq jarayonlar belgilandi.

Tadqiqotning predmetini XX asr oxiri va XXI asr boshlarida O'zbekistonning hududlaridagi ekologik holat va uni barqarorlashtirish shartlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tarixiylik, muammoviy-hududiy yondoshuv, qiyosiy tahlil, tizimlilik, mantiqiylik va og'zaki tarix kabi usullar qo'llanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi qo'yidagilardan iborat;

- Sovet hokimiyati davrida Respublika qishloq xo'jaligida zaharli pereparatlar me'yoridan ortiq qo'llanilib, janubiy hududlarda 1 gektar yerga 14 kg zaharli moddalar ishlatilganligi oqibatida mintaqada ekologik muvozanat buzilib, bioxilmaxillikka jiddiy ziyon yetkazilganligi dalillangan;

- XX asrning 80-yillarida ekologik og'ir vaziyat tufayli respublikada onalar va bolalar o'limi bo'yicha janubiy hududlar uchinchi o'rinda turganligi, mintaqada jami sho'rlangan yerlar 26400 gektarga yetganligi hamda yerning sho'rlanishi qisqa davrda qariyb besh baravar ko'payganligi aniqlangan;

- Tojikiston alyuminiy zavodidan chiqarilayotgan ftoqli gazlar tufayli Surxondaryoning shimoliy hududlari iqtisodiyotiga katta talofat yetkazayotganligi, shuningdek, aholi o'rtasida flyuroliz, onkologik, virusli, allergik hamda anomal kasalliklarning ko'payib borayotganligi dalillangan;

- «Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki» ishtirokida janubiy viloyatlarda yer sho'rlanishini oldini olish hamda «Fransiya taraqqiyot agentligi» (FAR) ishtirokida atmosfera havosini ifloslantirishning oldini olish bilan bog'liq amaliy ishlar bajarilganligi hududlar kesimida aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari qo'yidagilardan iborat: tadqiqotda Sovet hukumati hukmronligi davrida mintaqada paxta yakka hokimligining o'rnatilishi tufayli bioxilma-xillikka jiddiy ziyon yetkazilganligi ekologik muvozonatning izdan chiqib aholi salomatligi va atrof-muhit musoffoligiga jiddiy zarar yetkazilganligi asoslanib, mustaqillikning har bir sohada, jumladan ekologik vaziyatni yaxshilash bilan bog'liq tadbirlarni amalga oshirishning asosiy omili ekanligi ta'kidlanadi.

Tadqiqot natijalari asosida XX asr oxiri va XXI asr boshlarida Janubiy O'zbekiston hududlaridagi ekologik holatni o'rganish, mintaqadagi ekologik holat bilan bog'liq jarayonlarni yaxshilash yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi: Tadqiqotda tarix fanida tan olingan usullarning qo'llanilganligi, ko'p turdagi ilmiy adabiyotlar hamda arxiv hujjatlaridan

foydalanilganligi, tadqiqotda keltirilgan dalil va raqamlarning birlamchi manbalarga asoslangani xulosa taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, ular sovet hokimiyatining ekologik siyosatining umumiy xususiyatini anglab yetish, mintaqada yuzaga kelgan ekologik muammolarning ijtimoiy oqibatlarini aniqlash hamda mustaqillik yillarida ekologik holatni barqarorlashtirish maqsadida yuritalayotgan siyosatning mohiyatini tushinib yetish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, mazkur tadqiqot ishida qo‘lga kiritilgan ilmiy natijalar hamda ekologik vaziyat va uning ijtimoiy muammolari bilan bog‘liq masalalarni o‘rganish orqali O‘zbekiston tarixining aspektlarini boyitishga xizmat qiladi. Shuningdek dissertatsiya natijalaridan respublika oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun maxsus kurslar, o‘quv dasturlari va o‘quv qo‘llanmalari yaratish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. XX asr oxiri XXI asr boshlarida O‘zbekistonning janubiy hududlarida ekologik holat va uni barqarorlashtirish shartlari yuzasidan ishlab chiqilgan ilmiy xulosalar va takliflar asosida:

Sovet hokimiyati davrida Respublika qishloq xo‘jaligida zaharli preparatlar me‘yoridan ortiq qo‘llanilib, janubiy hududlarda 1 gektar yerga 14 kg zaharli moddalar ishlatilganligi oqibatida mintaqada ekologik muvozanat buzilib, bioxilmaxillikka jiddiy ziyon yetkazilganligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlardan foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2022 yil iyuldagi 06-31-850-son ma‘lumotnomasi). Natijada tomoshabinlarning sovet davrida O‘zbekistonning janubiy hududlarida ekologik vaziyatni izdan chiqish sabablari va uning ijtimoiy oqibatlari bo‘yicha yangi ma‘lumotlar olishga xizmat qilgan.

XX asrning 80-yillarida ekologik og‘ir vaziyat tufayli respublikada onalar va bolalar o‘limi bo‘yicha janubiy hududlar uchinchi o‘rinda turganligi, mintaqada jami sho‘rlangan yerlar 26400 gektarga yetganligi hamda yerning sho‘rlanishi qisqa davrda qariyb besh baravar ko‘payganligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlardan foydalanilgan (Respublika ma‘naviyat va ma‘rifat markazining 2022 yil iyuldagi, 39-910-son ma‘lumotnomasi). Bu esa, aholining ekologik ko‘nikmalarini yanada yuksalishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 9 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 25 ta ilmiy ish nashr etilgan. Shundan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan asosiy natijalarni chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, chet el jurnallarida 4 ta, xalqaro va respublika miqyosdagi ilmiy konferensiya va to‘plamlarda 14 ta maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Tadqiqot ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning tarixshunosligi, maqsad va vazifalari, tadqiqot

ob'ekti, predmeti, tadqiqotning ilmiy yangiligi ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, aprobatsiyasi natijalarning joriy qilinishi, e'lon qilinganligi hamda tarkibiy tuzilishi tavsiflangan.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekiston janubiy hududlarda ekologik holatning buzilishi va unga sabab bo‘lgan omillar”** deb nomlanuvchi birinchi bobda sovet hokimiyatining markazlashgan iqtisodiy tizimining milliy respublikalar iqtisodiyotiga ko‘rsatgan salbiy ta’siri, ma’muriy buyruqbozlik tamoyillari asosida faoliyat yuritgan markazning direktiv organlarning joylardagi shart-sharoitni inobatga olmasdan qabul qilgan qarorlari hamda O‘zbekistonda paxta yakkahokimligning o‘rnatilishining salbiy oqibatlarini, ekologik muvozanatning buzilishi bilan bog‘liq jarayonlar tahlil etilgan. Sovet davridagi iqtisodiyot tom ma’noda markazlashgan bo‘lib, tabiatni asrash bilan bog‘liq chora-tadbirlar uchun ajratilgan mablag‘lar asosan qoldiq fondlar orqali amalga oshirilar edi. Sovet hukumati atrof-muhitni asrash ekologik vaziyatni sog‘lomlashtirishga ajratilgan mablag‘ni qo‘shimcha xarj sifatida baholab va iloji boricha sohaga kam mablag‘ ajratardi¹³.

O‘rganilgan davrda markaz O‘zbekistonda zo‘r berib paxtachilik sohasini rivojlantirishga jiddiy e’tibor qaratdi. Misol uchun 1946-1985 yillar mobaynida respublikada paxta hosili 5,5 baravar ortdi, chigit ekiladigan maydonlar esa 841 ming gektardan 1989,8 ming gektarga oshirildi¹⁴. 1957-1987 yillar davomida respublikada 44 mln tonna paxta tolasi yetishtirildi. Ushbu tolaning atigi 2,2 mln tonnasi O‘zbekistonda qayta ishlandi¹⁵.

XX asrning 50-80 yillarida markazning O‘zbekistonga nisbatan iqtisodiy siyosatining asosiy mohiyati va maqsadi respublikadagi tabiiy boyliklardan maksimal darajada foydalanishdan iborat bo‘ldi. XX asrning 70 yillarining boshida O‘zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasining 1/3 qism hududiga 60 foiz aholisiga ega bo‘lib, sanoat mahsulotlarining 2/3 qismini qorako‘l terining 70, kanopning 100, ipakning 75, paxtaning 72 foizini bergan¹⁶.

1960-75 yillar oralig‘ida O‘zbekistonda organik yoqilg‘i ishlab chiqarish umuman 9,8 baravarga oshgan bo‘lsa, gaz qazib chiqarish 72 baravarga oshirildi¹⁷. Umuman markazning milliy o‘lkalarning tabiiy boyliklarini talash asosiga qurilgan iqtisodiy siyosati O‘zbekistonda ham jiddiy oqibatlariga olib keldi. Dunyoning ilg‘or davlatlari ishlab chiqarishga tejamkor texnologiyalarni joriy qilib, ilmiy asoslangan xo‘jalik yuritish tizimiga o‘tgan davrda sovet ittifoqi iqtisodiyotda rejalashtirish tizimi asosida faoliyat yuritib tabiat ustidan hukmronlik qilish, tabiat bersa beradi aksincha biz unga qarab tura olmaymiz biz tabiatdan tortib olishimiz kerak degan tamoyil asosida ish olib bordi. Zo‘ravonlikga asoslangan kommunistik mafkura mamlakatda shakllanayotgan ekologik muammolarni uzoq vaqt tan olmay keldi. Ishlab chiqarishda haddan ortiq miqdor ko‘rsatkichlariga e’tibor berish, katta hajmdagi rejalarning amaliyotga joriy etilishi, yirik gidroenergetik, meliorativ

¹³ Петров К.М. Общая экология в взаимодействии общества и природы. СПб, 1998. – С.315.

¹⁴ Народное хозяйство Узбекской ССР в 1985 г. – Ташкент: Узбекистан, 1986. – С. 103.

¹⁵ «Yosh leninchi» gazetasi, 1990 yil 29 noyabr.

¹⁶ Социально-экономическое развитие Узбекистана за годы Советской власти. – Ташкент: Узбекистан, 1984. – С. 153.

¹⁷ Узбекистан в мировой экономике. – Ташкент: Узбекистан, 1993. – С. 27.

loyihalarning amalga oshirilishi tabiatga, o'simlik va hayvonot olamiga jiddiy zarar yetkazdi. To'g'ri markaz o'tgan asrning 60 yillaridan tabiatni asrash borasidagi muammolarga ham e'tibor qarata boshladi. Buni o'sha davrda qabul qilingan qator rasmiy hujjatlarda ham ko'rish mumkin. Masalan, 1960 yil 22 aprelda SSSR Ministrlar Soveti «SSSRda suv resurslaridan foydalanishni tartibga solish va muhofaza qilishni kuchaytirish chora-tadbirlari» to'g'risida qaror qabul qildi¹⁸.

1960-1980 yillar oralig'ida SSSRda tabiatni muhofaza qilish yuzasidan 160 dan ortiq rasmiy hujjatlar qabul qilindi.¹⁹

1977 yildan boshlab SSSRda tabiatni muhofaza qilish yuzasidan bir qancha umumittifoq davlat standartlari ham joriy etildi. 1978 yil 1 dekabrda KPSS MQ va SSSR Minstrlar soveti tabiatni muhofaza qilishni kuchaytirish va tabiiy resurslardan foydalanishni yaxshilash bo'yicha qo'shimcha choralar haqida qaror qabul qildi²⁰.

Biroq, sovet hukumatining kapitalistik mamlakatlarga nisbatan nopisandlik siyosati ko'pincha dolzarb masalalarda qabul qilingan xalqaro konvensiyalarda qatnashishiga to'sqinlik qildi. Masalan, 1972 yilda BMTning atrof-muhit muhofazasi yuzasidan qabul qilgan Stokgolm konvensiyasida SSSR qatnashishdan bosh tortdi²¹.

Shuni qayd etish kerakki, paxtadan mo'l hosil olish maqsadida yerga solinayotgan mineral o'g'itlar ham shundayiga ham sillasi qurib borayotgan tuproq unumdorligini ko'tarib beraolmadi. Oqibatda sarflangan mineral o'g'itlar asosida hosildan ko'zlangan natija olinmadi. Masalan: 1983 yilda respublika bo'yicha 1 kilogramm azotli o'g'it hisobida 13 kilogramni paxta hosili olingan bo'lsa, 1984 yilda esa bu ko'rsatkich 11,4 kilogramm tashkil etdi. Mineral o'g'itlar samaradorligi Jizzax viloyatida 20, Navoiy viloyatida 34 foizga Qashqadaryo va Buxoro viloyatlarida esa ikki baravar kamayib ketdi. Qashqadaryo viloyatining Qamashi tumani xo'jaliklarida har kilogramm azot hisobiga 1983 yildagiga nisbatan 1984 yilda ikki marta kam ya'ni 8,2 kilogramm paxta yetishtirildi, xolos²².

O'rganilayotgan davrda agrokimyxo xizmati moddiy texnika ta'minotini mustahkamlash va rivojlantirish holati ham qoniqarsiz ahvolda edi. 1981-1985 yillar oralig'ida respublikada 161,6 ming tonna hajmdagi mexanizatsiyalashtirilgan omborlar va bazalar qurish o'rniga bor yo'g'i 54,4 ming tonna hajmdagi omborlar qurilib foydalanishga topshirildi. Shu maqsadda ajratilgan kapital mablag'larning faqatgina 60 foizga bajarildi²³. Xalq xo'jaligini boshqarishda reja izidan quvish, qanday qilib bo'lsada belgilangan miqdor ko'rsatkichlariga erishish yoki undan ham oshib ketish maqsadida qilingan harakatlar oqibatida tabiatda ham o'nqlab bo'lmaydigan yo'qotishlar sodir bo'la boshladi. Xo'jalikni ekstensiv metod bilan boshqarish, ilmiy asoslangan aqidalardan chekinish, ko'p millionlab yerlarning sho'rlanishiga suv va shamol erroziyasiga uchrashiga olib keldi. Mineral o'g'itlar va zaharli kimyoviy moddalardan o'rinsiz me'yoridan ortiq foydalanish, yer va suvning minerallashuvi hamda zaharli kimyoviy moddalar bilan ifloslanishiga olib keldi.

¹⁸ Об охране окружающей среды. Сборник документов партии и правительство 1917-1985 гг. – Москва, Политиздат, 1986. – С. 86.

¹⁹ Беков С.В. и др. Охрана окружающей среды. – Москва: Огонёк, 1983.

²⁰ O'zMA, 2742-fond, 1-ro'uxat, 184-ish, 61-varaq.

²¹ Газета «Правда», 16 декабря 1972 года

²² «Sovet O'zbekistoni» gazetasi, 1985 yil 17 aprel.

²³ «Yosh leninchi» gazetasi. 1986 yil 26 aprel.

O'rganilayotgan davrda qishloq xo'jaligida ishlatilayotgan zaharli kimyoviy zaharli moddalarni saqlash va qo'llash borasida jiddiy xatoliklar yuzaga keldi. Misol uchun o'rganilgan davrda Surxondaryo viloyatining paxta dalalarida 1 gektar haydalgan yerga 1,8 tonnadan ziyod zaharli kimyoviy vositalar to'g'ri kelgan. Vaholanki, ilmiy asoslangan me'yorlarga ko'ra 1 gektar haydalgan yerga 1 kilogrammga yaqin zaharli modda ishlatish mumkin xolos. Paxta dalalarida ko'plab miqdorda zaharli vositalarni ishlatilishi, ularni saqlash va taqsimlashda ham qo'pol xatoliklarga yo'l qo'yildi²⁴. Misol uchun, o'sha vaqtda Qashqadaryo viloyatida qishloq xo'jaligida qo'llaniladigan zaharli kimyoviy moddalarni saqlash holati umuman sanitariya talablariga javob bermas edi.

Viloyatda zaharli kimyoviy moddalar 1008 ta omborxonasida saqlangan bo'lsa ushbu omborxonalarning atigi 70 tasi maxsus loyihalar asosida qurilgan omborxonalar bo'lib qolganlari vaqtinchalik saqlov uchun mo'ljallangan bostirmalar edi²⁵.

O'sha davrda Qashqadaryo suvining zaharlanish holati nihoyatda tashvishlanarli holatda ekanligini quyidagi misoldan ham bilib olish mumkin. 1980 yilda Qashqadaryo suvini sanitar holatini tekshirish maqsadida qilingan tahlillar asosida bir litr suvda belgilangan normaga nisbatan fenol miqdori – 42, mis – 13, neft qoldig'i – 21, azot – 39, zaharli kimyoviy moddalar – 8,2 barobar, jumladan: GXSG – 10, DDT – 400 barovar ko'p ekanligi aniqlangan²⁶.

Respublikada uzoq yillar mobaynida muttasil qishloq xo'jaligini kimyolashtirish davom ettirildi. Agrokimyo kartagrammalari ko'rsatkichlarini hisobga olmay, ko'p miqdorda mineral o'g'itlar va zaharli kimyoviy preparatlar qo'llanildi. Bularning hammasi qishloq joylarda atrof-muhitning holati keskin yomonlashuviga olib keldi, aholining salomatligiga yomon ta'sir qildi. Mineral o'g'itlar va zaharli dorilarni oqilona ishlatmaslik oqibatida qishloq xo'jalik mahsulotlarida pestitsidlar miqdori yuqori darajada saqlanib qoldi. Bu esa aholining zaharlanishiga hamda turli yuqumli kasalliklar bilan kasallanishiga olib keldi. O'sha paytda xalq orasida "sariq kasal" deb nom olgan gepatit kasalligi yoz va kuz oylarida qishloq joylarda jiddiy tarzda ko'paydi. Shu davrda bolalar va katta yoshdagi odamlarning sariq kasalligi bilan kasallanishi odatiy holga aylanib qoldi.

Dissertatsiyaning «**O'zbekistonning janubiy hududlarida ekologik holat buzilishining salbiy oqibatlari**» deb nomlangan ikkinchi bobida O'zbekistonda paxta yakkahokimligi sharoitida paxta maydonlarining uzluksiz kengaytirilishi, qishloq xo'jaligida an'anaviy agrotexnikaning buzilishi, ko'p miqdorda yangi yerlarning o'zlashtirilishi agrar sohada zaharli kimyoviy moddalarning me'yoridan ortiq ishlatilishi va uning ekologik musoffoligiga ta'siri, shuningdek, sanoat korxonalarini faoliyati bilan bog'liq ekologik muammolar yoritilgan.

O'rganilayotgan davrda O'zbekistonda agrar sohada paxta yakkahokimligini qaror toptirish maqsadida rivojlantirildi. 1975-1985 yillarda respublikada 1 mln ga

²⁴ Pardayev T.R. Me'yorida bo'lgani yaxshi. «Fan va turmush» jurnali. 1998 yil 5-son. –B 23.

²⁵ Qashqadaryo viloyat davlat arxivi, 530-fond, 1-ro'yxat, 60-ish, 41-varaq.

²⁶ Qashqadaryo viloyat davlat arxivi, 530-fond, 1-ro'yxat, 60-ish, 43-varaq.

gektarga yaqin yangi yer maydonlari o'zlashtirildi. 1990 yilga kelib sug'oriladigan yer maydoni 1985 yilgiga qaraganda 1,5 baravarga ko'paydi²⁷.

XX asrning 50 yillaridan boshlab O'zbekistonda sug'orish va irrigatsiya tizimida yangi davr boshlandi. Janubiy hududlarda Qarshi magistral kanali, Tollimarjon suv ombori, Janubiy Surxon suv ombori, Zang, Sherobod, Amuzang kanallarining qurilishi, Qarshi va Surxon Sherobod cho'llarini o'zlashtirish imkonini berdi²⁸.

1962 yilda Surxon Sherobod massivida 114 ming gektar yer²⁹, 1963-1979 yillarda Qarshi dashtida 120 ming gektardan ortiq yer o'zlashtirildi³⁰. Qo'riq yerlarni o'zlashtirish, yangi paxtachilik rayonlarini yaratish, paxta ekiladigan maydonlarni kengaytirish mintaqada paxta yakka hokimligini kuchaytirishga olib keldi. Masalan, Surxondaryo viloyati agrar sohasida ham paxta yakka hokimligi yil sayin o'sib bordi. Masalan, 1970 yilda viloyatda 217,4 ming gektar yerda dehqonchilik qilindi, shundan 66,8 ming gektarida donli ekinlar, 119,3 ming gektarida kartoshka va poliz mahsulotlari yetishtirilgan bo'lsa, 1985 yilga kelib esa viloyatda 273,7 ming gektar yerga ekin ekildi, shundan; 62 ming gektarini donli ekinlar, 150,0 ming gektarini paxta 11,3 ming gektarini esa kartoshka va poliz mahsulotlari tashkil etdi³¹.

Paxtadan mo'l hosil olish, uning hosildorligini oshirish, markazdan turib belgilangan ulkan paxta topshirish rejasini bajarish uchun Respublika rahbariyati qo'lidan kelgan barcha ishni qildi. Xususan qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash, kimyolashtirish, boshqa qishloq xo'jalik ekinlari maydonini qisqartirib bo'lsada paxta maydonini kengaytirish kabi ishlar shular jumlasidan edi. Paxtadan mo'l hosil olish, qishloq xo'jalik zarakunandalariga qarshi kurashish maqsadida dalalarga me'yoridan ortiq darajada mineral o'g'itlar va zaharli kimyoviy preparatlar qo'llanila boshlandi.

Birgina 1960 yilning o'zida Surxondaryo oblastida 1 gektar yerga 10 kg dan ziyod zaharli preparat qo'llanildi. 1964 yili Qashqadaryo oblastida esa 1 gektar yerga 14,3 kgdan zaharli kimyoviy moddalar sepildi. Vaholanki ilmiy asoslangan me'yorlarga ko'ra 1 gektar yerga sepiladigan kimyoviy moddalar miqdori 1 kilogramga yaqin bo'lishi lozim³². 1971 yilga kelib esa Qashqadaryo viloyatida har bir gektar yerga 40-50 kg dan zaharli kimyoviy moddalar sepildi³³. Oqibatda tuproqning tarkibi jiddiy tarzda buzilib, suvda, havoda, tuproqda zaharli moddalar miqdori yil sayin ortib bordi. Vaziyat shu darajaga yetdiki hatto onalar suti tarkibida ham zahri qotil bo'lgan pesititsidlar mavjudligi aniqlandi. Qishloq xo'jaligida kimyoviy moddalardan ayovsiz tarzda foydalanish nafaqat atmosferani ifloslantirdi balki aholi salomatligiga ham jiddiy zarar yetkazdi. Sherobod tumanining Xitoy qishlog'ida yashovchi Rajab bobo Pardayevning eslashicha 1978 yilda Sherobod

²⁷ Karimov I. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – Toshkent: «O'zbekiston», 1997. – B 119.

²⁸ Pardayev T.R. O'zbekistonning janubiy hududlarida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot (1945-1991 yy.). Tarix fan. dokt. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan disser. Avtoreferati. – Termiz., 2021. –B 22-23.

²⁹ Tursunov S., Qobilov E., Pardayev T. Surxondaryo tarix ko'zgasida. – Toshkent: «Sharq NMK», 2001. – B. 252.

³⁰ Xudoyqulov M. Qarshi cho'li. – Toshkent: Sharq, 1998. – B. 175.

³¹ Узбекистан за годы одиннадцатой пятилетки (1981-1985 гг.). Статистический сборник. – Ташкент, 1986. – С.143.

³² Pardayev T.R. O'zbekiston qishloq xo'jaligini ximiyalashtirish va uning ekologik salbiy oqibatlari tarixidan lavhalar (1960-1970 yy.). – Toshkent: Fan, 1996. – B.9.

³³ «Lenin bayrog'»gazetasi, 1972 yil 6 yanvar.

tumani V.Qodirov nomidagi sovxoz ishchilaridan 2 nafar agronom, 4 nafar traktorchi va 6 nafar suvchi g'oz maydonlariga geksoxloran preparatini qo'llash jarayonida zaharlangan va shundan 2 nafari vafot etgan³⁴. 1989 yilda e'lon qilingan ma'lumotlarga ko'ra, Respublikada tug'ilgan har ming boladan 40 tasi, Surxondaryoda 60 tasi, Qashqadaryoda esa 65 tasi vafot etayotganligi ham bevosita mintaqadagi ekologik tanglik bilan bog'liq edi. Qishloq xo'jaligida zaharli kimyoviy moddalarni ayovsiz qo'llash bolalarning normal o'sishiga ham jiddiy zarar yetkazdi. 1990 yilda Qashqadaryo viloyatiining Markaziy bolalar shifoxonasida 12860 nafar bolaning 80 foizi gipotrofiya yoki ulardan 13 nafari esa ushbu kasallikning og'ir shakli bilan kasallanganligi qayd etilgan³⁵.

Yangi yerlarni o'zlashtirish jarayonida yo'l qo'yilgan ayrim xatolar xususan o'zlashtirilgan yerlarda drenaj va kollektor tizimlarining sifatsiz bajarilishida, reja izidan quvib, yangi yerlarni o'zlashtirishda shoshmashosharlik bilan palapartish harakat qilishlar oqibatida janubiy oblastlarning ayrim hududlarida yerning meliorativ holati yomonlashib, sho'rlanish darajasi yildan yilga ortib bordi.

Misol uchun 1987 yil Qashqadaryo viloyatida kuchli sho'rlangan yerlar 51 ming gektarni, o'rta sho'rlangan yerlar 37 ming gektarni tashkil qilardi. Mirishkor kanali atrofidagi yerlarda nihoyatda og'ir ahvol ro'y berdi. Bu yerlarda yer osti suvini chiqarib yuborish masalasi hal qilinmaganligi uchun yer o'ta darajada zaxlab ketdi. Qolaversa qurilish boshqarmasi tomonidan o'zlashtirilgan yerlar sifatsiz tarzda topshirildi. 1987 yilning 1 yanvariga qadar bu yerlarda qurilmagan kollektorlar 117 kmni, tugallanmagan yopiq drenajlar 754 kmni, chala qurilgan sug'orish tizimlari 84 kmni tashkil etardi. Qarshi magistral kanalining qurilishi oxiriga yetkazilmaganligi tufayli Koson rayonida kollektor va dyukerlar qurilmay qoldi. Boy terak, Po'lati kollektorlari ishlamadi. Har yili rejadagi 12 ming kilometr kollektorlarni tozalash o'rniga 2-3 ming kilometr kollektor tozalandi³⁶.

Oqibatda yerning hosildorligi pasayib sho'rlanish darajasi oshib bordi. 1987 yilda Qashqadaryo viloyatining qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida 2,5 mln gektar yer mavjud bo'lib, shundan 2,2 mln gektar yer qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yer 671 ming gektari haydaladigan yerlar, 1,4 mln gektar yer esa yaylovlarni tashkil etardi. 1976 yilda viloyatdagi sug'oriladigan har bir gektar yerdan 714 rubllik mahsulot olingan bo'lsa, 1986 yilga kelib bu ko'rsatkich 639 rublga tushib qoldi. 1976 yili har bir gektardan 28,4 sentnerdan paxta hosili olingan bo'lsa, 1986 yilga kelib 14,3 sentnerga tushib qoldi. Buning ustiga 35 ming gektar sug'oriladigan yer foydalanilmasdan sho'r bosib qoldi³⁷.

XX asrning 80-yillarida O'zbekistonda irrigatsiya tarmoqlarining ko'p qismi zamonaviy texnik talablarga javob bermas edi. Ariqlarning suv shimilishiga qarshi qoplamalarning yo'qligi sababli suvning ko'pi yerga singib ketardi. 1978-1982 yillarda respublikada har gektar yerga sarflangan suvning o'rtacha miqdori

³⁴ Pardayev Rajabdan 2018 yil 31 may kuni yozib olingan ma'lumot.

³⁵ Pardayev T.R. O'zbekiston qishloq xo'jaligini ximiyalashtirish va uning ekologik salbiy oqibatlari tarixidan lavhalar (1960-1970 yy). – Toshkent: Fan, 1996. –B. 15.

³⁶ Xudoyqulov M. Qarshi cho'li. – Toshkent: Sharq. 1998. – B. 273-274.

³⁷ «Qashqadaryo haqiqati gazetasi, 1987 yil 15 sentyabr.

belgilangan me'yorlardan ikki baravar ko'p bo'ldi³⁸. Yerga singib borayotgan suvlar hamda oqava suvlar miqdorining ko'payishi, drenaj-kollektor tizimining yaxshi ishlamasligi oqibatida yerlarning sho'rlanish jarayoni kuchaydi. Masalan, 1985-1990 yillar oralig'ida Namangan yerlarining 48 foizi, Andijon yerlarining 23 foizi, Sirdaryo yerlarining 22 foizi kuchli sho'rlandi.

Respublikaning 1,5 mln gektardan ortiq yeri sho'rlanib, ahvol fojeali tarzda yomonlasha boshladi³⁹. Jumladan, Qashqadaryo viloyatining janubi-g'arbiy va qisman shimoliy hududlarida yerning sho'rlanish holati yil sayin ko'paya boshladi. Jumladan, 1985 yilda ushbu hududda jami sho'rlangan yerlar 26400 gektar bo'lsa, shundan kuchsiz sho'rlangan yerlar 16350 gektar, o'rtacha sho'rlangan yerlar 7200 gektar, kuchli sho'rlangan yerlar esa 2850 gektardan ortiq edi. Biroq mazkur mintaqada yerning sho'rlanishi qisqa besh yilda qariyib besh baravar ko'paydi ya'ni, 1989 yilga kelib jami sho'rlangan yerlar 73825 gektarni, kuchsiz sho'rlangan yerlar 46122 gektarni, o'rtacha sho'rlangan yerlar 14419 gektarni, kuchli sho'rlangan yerlar esa 13284 gektarni tashkil qildi⁴⁰. Bu holat butun Respublika bo'yicha jiddiy tus ola boshladi. Oqibatda O'zbekistonda sug'oriladigan yerlarning o'rtacha 50 foizdan ko'proq qismi sho'rlandi⁴¹.

Birgina misol 1987 yilda Qashqadaryo viloyatida kuchli sho'rlangan yerlar 51 ming gektarni, o'rtacha sho'rlangan yerlar 37 ming gektarni tashkil qildi. Mirishkor kanali atrofidagi yerlarda nihoyatda og'ir ahvol ro'y berdi. Bu yerlarda yer osti suvini chiqarib yuborish masalasi hal qilinmaganligi uchun yer o'ta darajada zaxlab ketdi. Qolaversa, qurilish boshqarmasi tomonidan o'zlashtirilgan yerlar sifatsiz tarzda topshirildi. 1987 yilning 1 yanvariga qadar bu yerlarda qurilmagan kollektorlar 117 kmni, tugallanmagan yopiq drenajlar 754 kmni, chala qurilgan sug'orish tizimlari 84 kmni tashkil qilar edi.

Suv tanqis bo'lgan sharoitda undan tejamkorlik bilan foydalanish muhim ahamiyatga ega shu boisdan ham tadqiq etilayotgan davrda Surxondaryo viloyatida artezan quduqlar suvi orqali ekin maydonlarini sug'orish bilan bog'liq muammolarni hal qilishga ham jiddiy e'tibor qaratildi. Ushbu maqsadda viloyat hududida 3020 ta artezan qudug'i qazilgan bo'lib, shundan 1031 tasi ish holatida edi. Ushbu artezan quduqlaridan bir kecha kunduzda 1059,31 ming metr kub miqdor suv tortib olindi⁴². Shuni aytish kerakki, Surxondaryo viloyatida suv resurslari bir xil taqsimlanmagan. Masalan, Shimoliy hududlardagi Uzun, Sariosiyo, Denov va Sho'rchi tumanlarida suv ta'minoti ancha yaxshi, ammo janubiy guruhdagi Sherobod, Qiziriq va Muzrabod tumanlarida suv ancha tanqis.

Surxondaryo viloyatining shimoliy hududlarida suv muammosining hal etilishida To'palang daryosi o'zanida bunyod etilgan suv sig'imi 500 million kub metr bo'lgan To'palang suv omborining o'rni bor. Umuman viloyat bo'yicha 1995 yilda suv zahiralardan 4170,3 million metr kub suv olingan bo'lsa, 1996 yilda 3841,9

³⁸ Qashqadaryo ekologiyasi va ekonomikasi (ilmiy metodik ko'rsatma). – Qarshi, 1991. – B 25.

³⁹ Karimov Sh. Ekologik muammolar va iqtisodiy choralar. – Toshkent: «O'zbekiston», 1989. – B 18.

⁴⁰ Xudoyqulov M. Qarshi cho'li. – Toshkent: «Sharq», 1998. – B. 273-274.

⁴¹ Pardayev T.R. Janubiy O'zbekistonda 1945-1991 yillarda ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot. – Toshkent: «Yangi nashr», 2019. –B 156.

⁴² Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 446-fond, 1-ro'yxat, 1268-ish, 132-133-varaqlar.

million metr kub suv olindi. Ushbu ko'rsatkich 1997 yilda 5089,0 million kub metrga yetdi. Shulardan ichimlik va xo'jalik maqsadlarida mos ravishda 1995 yilda 105,0 million kub metr, 1996 yilda 106,0 million kub metr, 1997 yilda esa 108,6 million kub metr miqdorida suv ishlatildi⁴³.

Suv havzalarini ifloslanishdan muhofaza qilish masalasi atrof-muhitni muhofaza qilishning muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. O'zbekiston respublikasidagi qishloq xo'jalik ekinzorlarni sug'orish uchun har yili Amudaryodan sekundiga o'rtacha 250,0 metr kub, Sirdaryodan 1200 metr kub, Zarafshondan 164 metr kub, Qashqadaryodan 50 metr kub, Surxondaryodan 52 metr kub miqdorida suv olinadigan bo'ldi. Afsuski, bu daryolar o'zining boshlanishidan oxiriga qadar sanoat korxonalari, chorva fermalari, uy-ro'zg'or va sanoat korxonalarining oqovalari hamda zovur va drenajlarning chiqindi suvlari orqali ifloslanib turibdi. Masalan, Qashqadaryo viloyatida taxminan 30 ga yaqin korxonalar va tashkilot hamda maishiy tarmoqlardan bir yilda o'rtacha 32387,2 ming metr kub oqova suv ochiq havzalar, daryolar va zovurlarga tashlanmoqda, 9012,8 ming metr kub oqova suv esa ochiq maydonlarga oqizib yuborilmoqda⁴⁴.

Dissertatsiyaning **«Mustaqillik davrida O'zbekistonning janubiy hududlarida ekologik holatni barqarorlashtirish masalalari va uning natijalari»** deb nomlangan uchinchi bobida mustaqillik yillarida O'zbekistonning janubiy hududlarida atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi faoliyatlar hamda ekologik muammolarni hal qilinishi bilan bog'liq chora-tadbirlar, ekologiya va atrof muhit muhofazasi borasida xalqaro hamkorlik yuzasidan olib borilayotgan ishlar tahlil etilgan.

